



XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2021 - yil 15 - iyul

VI-36-7-7-93-K/21

Bulung'ur tuman hokimligi

Bulung'ur tumanida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va asosiy ko'rsatgichlarni 30 foizga oshirish yuzasidan amaliy chora-tadbirlar dasturini ijrosi to'g'risida

2021-yil II-chorakda tumanda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va asosiy ko'rsatgichlarni 30 foizga oshirish yuzasidan amaliy chora-tadbirlar dasturini ijrosi yuzasidan quyidagi natijalarga erishildi.

KBS soni

Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi asosiy raqamlar, Bulung'ur tumanida 2021-yilning birinchi yarim yilligida 205 ta kichik biznes subyektlari ochilishi rejalashtirilgan bo'lib, amalda 205 ta kichik biznes subyektlari ochilib reja 100% bajarildi.

610 ta Yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlari ochilishi rejalashtirilgan bo'lib, amalda 567 ta YaTTlar ochilib, reja 93 % yoki 43 taga kam bajarildi.

PK-4742 SONLI QAROR BO'YICHA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 iyundagi PQ-4742-sonli "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori ijrosini ta'minlash maqsadida

2021-yil birinchi yarim yilligida 3774 nafar ishchisiz fuqaroni o'zini-o'zi band qilish rejasi belgilangan bo'lib, amalda 4080 nafar fuqaro o'zini o'zi band qilib, reja 108,1 % bajarildi.

OILAVIY TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH MASALASIDA

Joriy yilning birinchi yarim yilligida oilaviy tadbirkorlik dasturlari uchun belgilangan reja 24,6 mlrd.so‘m etib belgilangan bo‘lsa, 1067 ta tadbirkorlarga barcha manbalar hisobidan jami 26,7 mlrd. so‘m ajratilib, reja 108,5% ga bajarildi.

Shundan:

“Har bir oila – tadbirkor”- 984 ta loyiha 23,4 mlrd.so‘m;

“Fermerlar jamg‘armasi” -8 ta loyiha 1,09 mlrd.so‘m;

Hunarmandchilik sohasi - 11 ta loyihaga 281 mln.so‘m;

Xotin-qizlar fondidan - 22 ta loyihaga 349 mln.so‘m;

“Yoshlar – kelajagimiz” -42 ta loyihaga 1,57 mlrd.so‘m

Ajratilayotgan kreditning asosiy qismi birinchi navbatda ishsiz yurgan tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan yoshlar va xotin-qizlarga hamda o‘z biznesini kengaytirish maqsadida bo‘lgan kichik biznes subyektlariga yo‘nalitirilishi ko‘zda tutilgan.

BUDJET

2021-yil birinchi yarim yilligi yakuniga ko‘ra, budjetga jami tushumlar o‘rnatilgan 40 mlrd 522,0 mln.so‘mlik reja amalda 45 mlrd 644 mln. so‘mga yoki 113% yoki 5 mlrd 122 mln. so‘mga ortig‘i bilan bajarildi;

Mahalliy budjetga o‘rnatilgan 22 mlrd 943 mln. so‘m reja belgilangan bo‘lib, haqiqatda 27 mlrd 23 mln.so‘mga yoki 118% yoki 4 mlrd 80 mln. so‘mga ortig‘i bajarildi.

LEGALIZASIYA

2021-yil birinchi yarim yilligi yakuni bilan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda norasmiy ishlab kelayotganlarning rasmiylashtirish rejasi 2 430 nafar etib belgilangan bo‘lsa, amalda 2 908 nafar xodimlar legallashtirilib, rejaga nisbatan 119,7% bajarildi.

“YER-ELEKTRON” dasturi

"YER-ELEKTRON" avtomatlashgan axborot tizimiga kiritish uchun bo‘sh yer uchastkalari maydoni 7,81 gektar, 277 ta yer uchastkalari aniqlangan. Shundan, Auksionga chiqarilgan jami yer uchastkasi soni 243 ta, auksionda sotilgan yer uchastkasi soni 42 tani tashkil etadi.

BANDLIK

Tumanda aholisining ishsiz qatlamini ish bilan ta'minlash maqsadida 2021-yil birinchi yarim yilligida 819 ta yangi ish tashkil etilishi belgilangan bo'lib, amalda 1 501 nafar ishsiz fuqarolar bandligi ta'minlandi (rejaga nisbatan 183,3%).

Tumanda 2021-yil birinchi yarim yillikda 143 nafar fuqarolar kasb-hunarga o'qitish belgilangan bo'lib, amalda 365 nafar (rejaga nisbatan 255,2%) fuqarolar mavjud kasb-hunar maktablarida o'qitildi.

2021-yilning ikkinchi yarim yilligida ham sanoat ishlab chiqarish hajmini, qishloq xo'jaligida, qurilish-pudrat ishlari, jami xizmatlar hajmi, chakana savdo-aylanmasi va yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha ko'rsatkichlar 30 %ga o'sishi ta'minlanadi.

“Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi XXXVI-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Bulung'ur tumanida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va asosiy ko'rsatkichlarni 30 foizga oshirish yuzasidan amaliy chora-tadbirlar dasturini ijrosi bo'yicha amalga oshirgan ishlar haqida tuman hokimining moliya-iqtisod va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari D.Xabibullayev hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumanni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, har bir yo'nalishdagi ishlarni jadallashtirish maqsadida tuman hokimining moliya-iqtisod va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari (D.Xabibullayev), tuman iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'i birinchi o'rinbosari, tuman investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i birinchi o'rinbosari (I.O'sarov), tumandagi sektorlar rahbarlari (B.Baxramov, S.Saidov, B.Jo'raqulov, Sh.Eshmurotov)lar bilan birgalikda:

yangi ish o'rinlari yaratish, ishsizlikni kamaytirish va mehnat bozori samaradorligini ta'minlash, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish va aholi turmush sifatini yaxshilash;

tumanning moliyaviy mustaqilligiga erishish hamda bank-moliya sohasini rivojlantirish natijasida aholi va biznes uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ishlab chiqarish infratuzilmasining barqarorligi va ishonchligini ta'minlash;

investitsiya jalb etishning samarali vositalaridan biri bo'lgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini transport, energetika, yo'l, kommunal, tibbiyot, ta'lim kabi sohalarga keng tadbiq etish;

barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, sanoat salohiyatini mustahkamlash va hududlarni kompleks rivojlantirish maqsadida investitsiyalarni jalb qilish sohalari va tarmoqlarini aniqlash orqali faol investitsiya siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;

2021-yilda "Temir daftar"ga kiritilgan kambag'al oilalarning ijtimoiy holatini yaxshilash, kambag'allikdan chiqarish va o'zini-o'zi band qilishni ta'minlash maqsadida imtiyozli kredit asosida chorvachilik, tikuvchilik, issiqxona va boshqa yo'nalishlarda kredit ajratilishini tizimli ravishda olib borilishini ta'minlash choralarini ko'rish vazifalari topshirilsin.

3. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Nomazov) zimmasiga yuklatilsin.

Кенгаш раиси



Б.Бахрамов